



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

FARZAND TA'LIM VA TARBIYASIDA ONANING ROLI

Karimova Munisa*SamDCHTI o'qituvchisi***Aminjonova Sevinch G'aniyevna***SamDCHTI Kechki fakulteti**Filologiya va tillarni o'qitish(ingliz tili) yo'nalishi**2-bosqich 2324-guruh talabasi**aminboyevasevinch1@gmail.com*

Annotatsiya. Hozirgi kunda bolalarning ta'lismi va tarbiyasi dolzARB va jamiyat uchun muhim masala bo'lib kelmoqda. Chunki bolalar jamiyatning kelajaki hisoblanishadi. Shu boisdan ularning ta'lismi va tarbiyasi barcha uchun muhimdir. Mazkur maqola farzand tarbiyasi va ta'lismi jarayonida onanining o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Unda oilaviy muhitning shakllanishidagi onanining hissasi, bolalarning shaxs sifatida rivojlanishida ayollarning psixologik va pedagogik yondashuvlari o'rGANILADI. Asosiy urg'u onanining mehr-muhabbati, e'tibori va nazorati orqali farzand tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ona, farzand tarbiyasi, ta'lismi, oila, psixologik yondashuv, pedagogika, mehr-muhabbat.

Farzandning ta'lismi va tarbiyasi har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun asosiy omildir. Ayniqsa, oilada bolalarning dastlabki tarbiyasi va shaxs sifatida shakllanishida onanining roli beqiyosdir. Onanining bolaga nisbatan mehr-muhabbati, sabr-qanoati va to'g'ri yo'naltiruvchi pedagogik yondashuvi farzandning ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga asos yaratadi. Bu mavzuni chuqur o'rGANISH bugungi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhimdir.

Bolaga yoshlik chog'idan yaxshi ta'lismi-tarbiya berish, unga halollik, rostgo'ylik, ahillik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ziyraklik fazilatlarini o'rgatish shu bilan bir qatorda unga yog'onchilik, o'g'irlilik, hasadgo'ylik, dangasalik, loqaydlik degan zararli odatlardan saqlanishni ham ota-ona o'rgatishi talab etiladi. Chunki ushbu tushunchalar bolani ongiga yoshlik chog'idan boshlab singdirilib borilsa, bunday bolalar kelajakda jamiyat ravnaqiga hissa qo'shadigan ziyoli, namunali shaxslar bo'lib yetishadi.

Abu Hurayra(roziyalohu anhu)dan rivoyat qilinadi: "Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): "Har bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) bilan tug'iladi. Bas, ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi...". [4]

Bola hayotida onanining roli barcha jabhalarda muhim sanaladi. Ta'limda, tarbiyada, hayotiy ko'nikmalarda va boshqalarda. Bu yerda shunday jabhalardan misollar keltirilgan.





Onaning ta'limdagi roli

Onaning farzand hayotidagi o'rni o'ziga xos. Ona bolaning ilk murabbiysi sifatida ta'lim jarayonida asosiy ma'lumotni yetkazadi. Ona bolaga yoshlik chog'idan turli sohalar bo'yicha ma'lumotlarni, bilim va ko'nikmalarni beradi. Misol uchun unga sonlarni, qo'shish va ayirishni, o'qishni, yozishni va boshqa narsalarni o'rgata oladi. Agar ona bilimli bo'lsa, bola ham onasiga o'xshab bilimli bo'lib ulg'ayadi.

Masalan, D. I. Haribovaning tadqiqotlariga ko'ra, bolalik davrida ona bilan muloqotning sifati bolaning bilim olish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Onaning ertak aytishi, oddiy bilimlarni tushuntirishi va hayotiy tajribalarini o'rtoqlashishi bolalarning ilk intellektual rivojlanishiga yordam beradi. [1]

Tarbiyada onanaing roli.

Bola hayotida ta'limda onanaing roli qanchalik muhim va beqiyos bo'lsa tarbiyada ham xuddi shunday bo'ladi. Ona o'z bolasiga yoshlik chog'idan tarbiyaviy masalalarni o'rgatadi. Misol uchun: o'zidan kattaga doimo salom berish, yolg'on gapirmaslik, g'iybat qilmaslik, o'g'irlilik qilmaslik va boshqalar. Qisqacha qilib aytganda etika va estetika qoidalarini barchasini bolaga yoshlik chog'idan o'rgatilishida onaning o'rni beqiyos.

Tarbiyaning asosiy tamoyillari bolalarning ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga bog'liq. Onaning mehr-muhabbati va qulq solishga tayyorligi bolalarda ishonch hissini rivojlantiradi. A. V. Petrova o'z asarlarida bolalarning shaxs sifatida shakllanishida onaning doimiy e'tibor va nazorati zarurligini ta'kidlagan. [2]

Oilaning muhitidagi ta'sirlar

Oila muhitidagi sog'lom atmosfera bolalarning shaxsiyat shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hech kimga sir emaski bola yomon, noto'g'ri muhitda ulg'aysa bu uning psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu ta'sir esa bolaning kelajagiga ham muhim rol o'ynaydi. Oilada har kuni urush-janjal bo'lsa, yoki otalar bolalar oldida noto'g'ri so'zlar ishlatsa, bu harakatlar bolaga ta'sir ko'rsatadi. Natijada esa bolalar agressiv bo'lib ulg'ayishi mumkin. Axir aytishadiku "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb.

Psixologlarning fikriga ko'ra, farzandlarning birinchi ijtimoiy o'rganish muhiti oiladan boshlanadi. Shuning uchun ona o'z farzandiga tarbiyaviy muhitni yaratishda asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. [3]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, onaning ta'lim va tarbiyada tutgan o'rni, uning mehribonligi va ma'naviy qiyofasi farzandning kelajakda shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladi. Bolalarning ruhiy rivojlanishida onaning hissasi faqatgina bilim berish bilan emas, balki ularning hayotiy qadriyatlarni shakllantirish bilan ham bog'liq. Shuning uchun ona ta'lim va tarbiyada asosiy poydevor sifatida ko'rildi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haribova, D. I. (2019). Bolalar psixologiyasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi nashriyoti.
2. Petrova, A. V. (2020). Oilaviy pedagogika tamoyillari. Moskva: Pedagogika va ta'lif nashriyoti.
3. Shmidt, I. G. (2018). Shaxs rivojlanishida oilaning o'rni. Toshkent: Adabiyot va ma'rifat.
4. Muslim.uz

